



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramozonova Bahroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
S. S. Qulmurodova	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zараfruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'lqin qizi	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	




Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<i>Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</i>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<i>Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<i>Umida Marasulova</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	193
<i>Mirzayeva Shahlo, Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Javliyeva Dilnura</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar adabiyoti kerakmi?!.....	196
<i>Dilfuza Shadiyeva</i>	
Experimental Study on the Psycho-Pedagogical Effectiveness of Mall-Based Multimodal Learning in Developing Pluricultural Competence	200
<i>Azimova Sevara Muzaffar qizi</i>	
Simulyatsion o'quv muhitida fizika o'qituvchilarining o'z-o'zini boshqarish va refleksiv kompetentligini oshirish	205
<i>Muradov Ilxomjon Abduxamid o'g'li</i>	
Ta'lim menejmentida strategik boshqaruv tushunchasining evolyutsiyasi.....	209
<i>Raximjonov Jamshid Rafiqjon o'g'li</i>	
Raqamli kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar tahlili	214
<i>Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish usullari.....	218
<i>Abdreimova Maftuna O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarining tuzilishi hamda o'quvchilar yoshiga muvofiqligi.....	223
<i>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</i>	
Oliy ta'limda pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar	228
<i>Isabekov Bahodir Isabek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari .	233
<i>Boydavletova Sohiba Abduganiyevna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	239
<i>G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	243
<i>Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va ilmiy-nazariy pedagogik asoslari.....	248
<i>Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna</i>	
Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....	253
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san'at va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	257
<i>Esanova Hulkar Abdurayim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish	261
<i>Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi xavfsizlik hissiga ta'sirining nazariy va amaliy tahlili	266
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Qoldiboyeva Xayriniso Eldarovna</i>	
Milliy o'yinlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	269
<i>Ismatov Po'latjon Abdumannobovich</i>	
Ta'lim sifatini boshqarish jarayonida kvalimetrik parametrlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati	273
<i>Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna</i>	



Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	278
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Matematika o'qitishda milliy qadriyatlarni aks ettirish	282
<i>Mirzayeva Shahlo, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi,</i> <i>Muxtorova Sevinch Asad qizi, Xolboyeva Mushtariy Zayniddin qizi</i>	
Ingliz tilida fe'l frazeoformalarining morfologik tuzilishiga xos umumiy xususiyatlar.....	285
<i>Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda interaktiv metodlarning ahamiyati.....	289
<i>Ramazonova Munisa Hoshim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining lug'at boyligini oshirishda intellektual o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish.....	294
<i>Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna, Ibragimova Dildora Turabovna</i>	
Maktabgacha ta'limda pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi.....	298
<i>S. A. Rahmonberdiyev</i>	
Yoshlarni destruktiv submadaniyatlar ta'siridan himoyalashning innovatsion pedagogik usullari	304
<i>Xasanova Marxabo Turayevna</i>	
Социально-психологические особенности домашнего насилия в условиях трансформации семьи и цифровизации общества	308
<i>Абдукадилова Лаура Юльбарсовна, Абдуллаева Азиза Комилжон кизи</i>	
Педагогические основы развития инновационной компетентности педагогов в системе дошкольного образования.....	315
<i>Гульнара Ахтямовна</i>	
Роль учебного процесса и творческой деятельности в сохранении психологического равновесия.....	320
<i>Коршубаева Рано Хазраткуловна</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI



Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi
 Pedagogika yo'nalishi magistratura bo'limi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Amirullayeva Barno Abdulhaqovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Samarqand kampusi pedagogika kafedrası v.b. dotsenti

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'rni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan yoritilgan. Mantiqiy tafakkurning bolaning taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, guruhlash, sabab-oqibat bog'lanishlarini anglash hamda xulosa chiqarish kabi aqliy amallarni bosqichma-bosqich egallashi asosida shakllanishi izohlangan. O'yin faoliyatining maktabgacha yoshdagi bolalar psixik rivojlanishidagi yetakchi faoliyat sifatidagi mohiyati, didaktik o'yinlarning mazmuni, tuzilishi, pedagogik imkoniyatlari hamda ularni tashkil etish shartlari tahlil qilingan. Shuningdek, predmetli, stol-bosma, og'zaki, harakatli va muammoli vaziyatlarga asoslangan didaktik o'yinlar orqali bolalarda mantiqiy operatsiyalarni shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan. Tarbiyachi va ota-onaning yo'naltiruvchi roli, rivojlantiruvchi muhit, o'yin topshiriqlarining yoshga mosligi, baholash hamda refleksiya elementlarining ahamiyati asoslab ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, mantiqiy tafakkur, didaktik o'yin, bilish jarayoni, aqliy rivojlanish, taqqoslash, tahlil, umumlashtirish, tasniflash, o'yin texnologiyasi, rivojlantiruvchi muhit.

Abstract: The role of didactic games in the development of logical thinking in preschool children is examined from a scientific and pedagogical perspective. It is substantiated that logical thinking develops through the gradual mastery of mental operations such as comparison, analysis, generalization, grouping, understanding cause-and-effect relationships, and drawing conclusions. The article analyzes the essence of play activity as a leading factor in the psychological development of preschool children, as well as the content, structure, pedagogical potential, and organizational conditions of didactic games. Furthermore, the mechanisms for developing logical operations in children through object-based, table-printed, verbal, active, and problem-based didactic games are revealed. Special attention is paid to the guiding role of educators and parents, the importance of a developmental environment, the age-appropriateness of game tasks, and the significance of assessment and reflection elements.

Key words: preschool education, logical thinking, didactic game, cognitive process, mental development, comparison, analysis, generalization, classification, game technology, developmental environment.

Аннотация: Освещена роль дидактических игр в развитии логического мышления у детей дошкольного возраста с научно-педагогической точки зрения. Обосновано, что логическое мышление формируется посредством поэтапного освоения ребенком таких мыслительных операций, как сравнение, анализ, обобщение, группировка, понимание причинно-следственных связей и умозаключение. Проанализированы сущность игровой деятельности как ведущего фактора психического развития ребенка дошкольного возраста, содержание, структура и педагогические возможности дидактических игр, а также условия их организации. Раскрыты механизмы формирования логических операций у детей посредством предметных, настольно-печатных, словесных, подвижных и проблемно-ориентированных дидактических игр. Особое внимание уделено направляющей роли воспитателя и родителей, значению развивающей среды, соответствию игровых заданий возрастным особенностям детей, а также элементам оценивания и рефлексии.

Ключевые слова: дошкольное образование, логическое мышление, дидактическая игра, познавательный процесс, умственное развитие, сравнение, анализ, обобщение, классификация, игровая технология, развивающая среда.

KIRISH

Maktabgacha yosh davri inson rivojlanishining eng nozik, eng sermahsul va eng ta'sirchan bosqichlaridan biridir. Aynan shu davrda bolaning nutqi, idroki, xotirasi, tasavvuri, diqqat barqarorligi, o'zini boshqarish ko'nikmalari va atrof-muhitni anglash qobiliyati jadal shakllanadi. Shu jarayonda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bola keyingi bosqichlarda bilimni o'zlashtirishi, muammoni tushunishi, topshiriqni tahlil qilishi, o'xshash va farqli jihatlarni ajratishi, oddiy xulosalar chiqara olishi aynan shu poydevorga tayangan holda kechadi.

Zamonaviy maktabgacha ta'limda bolani "bilim bilan to'ldirish" emas, balki uning fikrlash usullarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. O'yin, ayniqsa maqsadli tashkil etilgan didaktik o'yin, ushbu vazifani tabiiy, bolaga mos va samarali yo'l bilan hal etadi. UNICEFning o'yin orqali o'rganish haqidagi tavsiyalarida ham maktabgacha davrda o'yin bolaning dunyoni anglash, tasavvurini kengaytirish, tahliliy va mantiqiy fikrlashni faollashtirish vositasi ekani ta'kidlanadi. NAEYC esa faol ishtirok, o'yin, izlanish va tadqiqotga asoslangan tajribalarni rivojlanishga mos amaliyotning markazi sifatida belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mantiqiy tafakkur tushunchasi ko'pincha kattalar mantig'i bilan bog'lab talqin etiladi. Aslida esa maktabgacha yoshdagi bola uchun bu, avvalo, narsalar va hodisalar o'rtasidagi oddiy munosabatlarni tushunish, belgilariga ko'ra taqqoslash, ortiqchasini ajratish, guruhlariga bo'lish, ketma-ketlikni tiklash, sodda sabab-oqibat aloqalarini ko'ra bilish, "nega?", "qanday?", "qaysi biri?" kabi savollarga aqliy harakat orqali javob topa olishdir.

Piaget bolalar intellektining shakllanishini bosqichma-bosqich kechuvchi jarayon sifatida izohlab, bolaning bilimni tayyor holda emas, balki faol harakat va tajriba asosida o'zlashtirishini ko'rsatadi ^[1].

Vygotskiy esa aqliy rivojlanishning ijtimoiy tabiati, ya'ni kattalar va tengdoshlar bilan muloqot, qo'llab-quvvatlash hamda hamkorlikning hal qiluvchi rolini asoslab beradi ^[2]. Ushbu nazariy qarashlar didaktik o'yin metodikasining ilmiy poydevorini tashkil etadi.

Chunki didaktik o'yinlarda bola narsani faqat ko'rmaydi, balki u bilan amaliy harakat qiladi, belgilarni solishtiradi, qaror qabul qiladi, qoidaga bo'ysunadi, xatoni ko'radi va uni tuzatishga intiladi. Demak, didaktik o'yin mantiqiy tafakkurning tashqi harakatdan ichki aqliy amalga aylanishida tabiiy ko'priq vazifasini bajaradi. Piagetning sensor-motor va keyingi intellektual sxemalar haqidagi qarashlari ham, Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi g'oyasi ham bolaning faol amaliy mashg'ulot va yo'naltirilgan yordam orqali fikrlash darajasini oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati sifatida o'yin masalasi psixologiyada keng yoritilgan. Elkonin o'yin faoliyatini maktabgacha davrning asosiy rivojlantiruvchi maydoni sifatida talqin etib, aynan o'yin jarayonida bola ijtimoiy munosabatlarni modellashtirishi, rollarni egallashi, qoidalarga bo'ysunishi va shu orqali ichki boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishini ko'rsatgan ^[4]. Elkonin talqinida o'yin shunchaki hordiq emas, balki rivojlanish manbai, yaqin rivojlanish zonasini yaratadigan faoliyatdir.

Bu fikr didaktik o'yinlarning mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Chunki didaktik o'yinlarda erkinlik va maqsadlilik uyg'unlashadi: bola o'ynayotganini his qiladi, biroq tarbiyachi pedagogik maqsadni yashirin yoki ochiq shaklda boshqarib turadi. Natijada bolaning emotsional jalb etilishi saqlanadi, lekin faoliyat faqat ko'ngilxushlik bilan cheklanib qolmaydi. O'yinli vaziyat, syujet, qiziqish uyg'otuvchi materiallar va qoidalar bolada tabiiy ichki motivatsiya hosil qiladi.

Shu sababli didaktik o'yinlar ayniqsa maktabgacha ta'limda samaralidir: bola "mashq bajaryapman" deb emas, "men topdim", "men tanladim", "men g'olib bo'ldim", "men tushundim" degan ichki tajriba orqali o'rganadi. Elkonin ham o'yin maktabgacha davrda yetakchi faoliyat ekanini alohida ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan pedagogik kuzatish, suhbat, taqqoslash va amaliy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilarning o'yin faoliyati kuzatilib, ularning taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, ketma-ketlikni aniqlash va sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish ko'nikmalari o'rganildi. Shuningdek, tarbiyachilar bilan suhbatlar o'tkazilib, didaktik o'yinlarni tashkil etish usullari hamda ularning bolalar tafakkuriga ta'siri haqida ma'lumotlar yig'ildi.

Tadqiqotda predmetli, stol-bosma, og'zaki va harakatli didaktik o'yinlardan foydalanilgan mashg'ulotlar natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar pedagogik va psixologik jihatdan tahlil etilib, bolalarning mantiqiy fikrlash faolligi, mustaqil qaror qabul qilish va nutqiy izohlash ko'nikmalaridagi o'zgarishlar umumlashtirish asosida baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Didaktik o'yinlarning mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati, birinchi navbatda, ularda mantiqiy operatsiyalar tabiiy faoliyat tarkibiga singdirilganligi bilan izohlanadi. Oddiy ko'rinishda "bir xilini top", "nimasi ortiqcha?", "qaysi ketma-ketlik to'g'ri?", "nima uchun?", "avval nima bo'lgan?", "qaysi guruhga kiradi?", "qaysi belgi bo'yicha ajratish mumkin?" kabi topshiriqlar aslida tahlil, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, ketma-ketlikni tiklash, sabab-oqibatni aniqlash kabi aqliy harakatlarga tayanadi. Bola rang, shakl, hajm, vazifa, harakat, miqdor, joylashuv yoki funksiyaga ko'ra predmetlarni ajratishni o'rgangan sari, u tashqi belgilar bilan bir qatorda mazmuniy aloqalarni ham ko'ra boshlaydi.

Masalan, dastlab bola "olma, koptok, pomidor" predmetlarini qizil bo'lgani uchun bir guruhga qo'shishi mumkin, keyinroq esa "mevalar" va "o'yinchoqlar" kabi mazmuniy tasnifga o'tadi. Bu o'zgarish mantiqiy tafakkur rivojlanishining muhim belgisi sanaladi. Didaktik o'yinlar aynan shu o'tishni tezlashtiradi, chunki ular belgini tanlash, tanlovni asoslash va xatoni ko'rishni talab etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkur, avvalo, ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli asosda rivojlanadi. Shuning uchun didaktik o'yinlar abstrakt tushunchalarni emas, konkret predmetlar, kartochkalar, kubiklar, geometrik shakllar, tabiat materiallari, rasmlar, syujetli vaziyatlar, qisqa hikoyalar hamda harakatli mashqlar orqali tashkil etilganda samarali bo'ladi. Montessori ham bolaning intellektual rivojlanishida sezgi materiallari, mustaqil tanlov va amaliy tajribaning beqiyos ahamiyatini ta'kidlaydi^[3].

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, didaktik o'yin qanchalik ko'p sezgi kanallarini jalb etsa, shunchalik ko'p aqliy faoliyatni uyg'otadi. Bola bir vaqtda ko'radi, eshitadi, ushlab ko'radi, joylashtiradi, solishtiradi va nomlaydi. Bu esa mantiqiy tafakkur bilan nutq rivojini ham bog'laydi. Chunki bola o'z harakatini so'z bilan izohlay boshlaganda, aqliy jarayon tobora ichkilashadi. "Bu katta, bunisi kichik", "bu yerga sig'maydi", "bularning hammasi yumaloq", "avval urug', keyin nihol, keyin gul" kabi izohlar oddiy gap emas, balki mantiqiy bog'lanishlarning til vositasida mustahkamlanishidir.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning turlarini to'g'ri tanlash muhimdir. Predmetli o'yinlarda bolalar haqiqiy buyumlar yoki ularning modellaridan foydalanib taqqoslaydi, guruhlaydi, o'Ichaydi, juftlaydi hamda ketma-ketlik hosil qiladi. Masalan, rangli kubiklar bilan "katta-kichik", "baland-past", "uzun-qisqa" aloqalarini aniqlash, meva-sabzavot maketlarini "ta'miga", "o'sish joyiga", "shakliga" ko'ra ajratish, geometrik shakllarni xossalriga ko'ra joylashtirish kabi topshiriqlar bolada tasniflash va belgilarga ko'ra solishtirish ko'nikmasini hosil qiladi.

Stol-bosma o'yinlarda loto, domino, juftini topish, rasmlar ketma-ketligini tiklash, labirintlar hamda mantiqiy kartochkalar orqali diqqat, xotira va mantiqiy operatsiyalar birgalikda ishlaydi. Og'zaki didaktik o'yinlarda esa bola ko'proq tasavvur, nutq va ichki tahlilga tayanadi: "men nimani o'yladim?", "qaysi biri ortiqcha?", "nega shunday deb o'ylaysan?", "hikoyani davom ettir" kabi topshiriqlar nutqiy-mantiqiy fikrlashni rag'batlantiradi.

Harakatli didaktik o'yinlar esa qoidaga bo'ysunish, signalni farqlash, tez qaror qabul qilish, ketma-ketlikni yodda tutish hamda o'zini boshqarish kabi ijro funksiyalarini mustahkamlaydi. Harvard markazining 3–5 yoshli bolalar uchun tavsiyalarida xayoliy-rolli o'yinlar, qoida asosidagi faoliyatlar, juftlash va saralash mashg'ulotlari o'zini boshqarish hamda ijro funksiyalarini kuchaytirishi ko'rsatilgan. Bunday o'yinlarda bola rolga mos bo'lmagan impulslarni jilovlashni o'rganadi. Bu jarayon mantiqiy tafakkur uchun ham muhim, chunki mantiqiy fikrlash ichki tartib, diqqatni ushlab turish va qoidaga amal qilishni talab etadi.

Didaktik o'yinlarning samaradorligi, albatta, o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Ularni pedagogik mahorat bilan tashkil etish zarur.

Birinchi shart – maqsadning aniqligidir. Tarbiyachi qaysi mantiqiy amalni rivojlantirmoqchi ekanini aniq bilishi lozim: taqqoslashmi, tasniflashmi, umumlashtirishmi, sabab-oqibatni topishmi yoki ketma-ketlikni tiklashmi? Maqsad noaniq bo'lsa, o'yin faqat ko'ngilochar faoliyatga aylanib qoladi.

Ikkinchi shart – yosh va individual xususiyatlarni hisobga olishdir. 3–4 yoshli bolaga murakkab og'zaki mantiqiy topshiriq berish samarasiz, 5–6 yoshli bolani esa faqat sodda rang ajratish bilan cheklab qo'yish rivojlanishni sekinlashtiradi. Vygotskiy qayd etganidek, samarali ta'lim bolaning allaqachon uddalay oladigan darajasi bilan kattalar yordami orqali bajarishi mumkin bo'lgan darajasi oralig'ida tashkil etilishi kerak^[2]. Demak, didaktik o'yin na haddan tashqari oson, na haddan tashqari qiyin bo'lishi lozim.

Uchinchi shart – rivojlantiruvchi muhit yaratishdir. O'yin uchun materiallar bolani o'ziga tortishi, estetik jihatdan yoqimli, xavfsiz va maqsadga mos bo'lishi kerak. Materiallar xilma-xilligi bolada yangi bog'lanishlar topish ehtiyojini uyg'otadi. Masalan, bitta kartochkali mashqdan ko'ra bir nechta belgi asosida ishlashga imkon beruvchi materiallar samaraliroq bo'ladi.

To'rtinchi shart – savollar sifati. Tarbiyachi "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" bilan cheklanmasdan, "nega?", "qanday bilding?", "boshqacha usul bormi?", "yana qaysi belgi bo'yicha ajratsa bo'ladi?" kabi savollar orqali bolaning

fikrlash yo'lini ochib berishi zarur. Ana shunda didaktik o'yin mantiqiy tafakkurning ko'rinmas ichki jarayonlarini yuzaga chiqaradi.

Beshinchi shart – refleksiyadir. O'yin oxirida “nima qiyin bo'ldi?”, “nima oson bo'ldi?”, “nima uchun shunday joylashtirding?” kabi qisqa suhbatlar bolada o'z fikrini anglash va asoslash odatini rivojlantiradi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda nutqning o'rnini nihoyatda katta. Bola qanchalik ko'p solishtirsa, qiyoslasa, sababini tushuntirsa, shunchalik uning tafakkuri ravshanlashadi. Didaktik o'yinlar aynan shu jihati bilan qulay: ularda harakat va so'z bir-birini to'ldiradi. Masalan, “ortiqcha predmetni top” o'yinida faqat to'g'ri rasmni ko'rsatish yetarli emas, “nega ortiqcha?” degan savolga javob berish talab etilganda bola umumlashtirishga majbur bo'ladi.

“Tulki, bo'ri, ayiq, olma” qatorida “olma ortiqcha, chunki qolganlari hayvon” degan izoh umumlashtirish amali shakllanganini bildiradi. “Yomg'ir yog'di, yer ho'l bo'ldi” kabi bog'lanishlar bilan ishlash esa sabab-oqibat tafakkurining boshlanishidir. Shu bois tarbiyachining nutqiy yordamchi konstruksiyalari – “menimcha...”, “chunki...”, “avval...”, “keyin...”, “bularning hammasi...” – o'yin metodikasining muhim qismidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkur rivojini kuzatishda didaktik o'yinlar diagnostik vosita vazifasini ham bajaradi. Tarbiyachi bolani odatiy suhbatda emas, aynan o'yin jarayonida tabiiyroq ko'radi. Bola qaysi belgilarni tez farqlaydi, qaysi yerda qiynaladi, savolga javobni taxmin bilan aytadimi yoki asoslay oladimi, tasniflashda birgina belgiga yopishib qoladimi yoki boshqa asoslarni ham topadimi – bularning barchasi o'yin chog'ida yaqqol namoyon bo'ladi.

Elkonin ham o'yin kuzatuvlari bolani o'rganishning muhim vositasi ekanini qayd etadi. Shu jihatdan didaktik o'yin nafaqat rivojlantiradi, balki tarbiyachiga individual yondashuv rejasini tuzishga ham yordam beradi. Masalan, bir bola shakl va rang bo'yicha tez tasniflashi, ammo ketma-ketlikni tiklashda qiynalishi mumkin, boshqasi esa syujetli sabab-oqibat zanjirlarini yaxshi tushunsa-da, miqdoriy qiyoslashda sust bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra o'yin repertuari individuallashtiriladi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning mazmuni milliy-madaniy muhit bilan uyg'un bo'lishi ham muhim. Maktabgacha ta'limda qo'llanayotgan o'yinlar bolaning kundalik tajribasiga yaqin bo'lsa, ularni tezroq anglaydi va faolroq qatnashadi. Mahalliy mevalar, uy hayvonlari, milliy buyumlar, fasllar, oilaviy marosimlar, transport turlari, mahalla hayoti hamda tabiat kuzatuvlari asosida tuzilgan o'yinlar bolaning real tajribasiga tayanadi. Bu esa mantiqiy bog'lanishlarni mavhum emas, yaqin va tushunarli kontekstda shakllantiradi.

Masalan, “qishda nima bo'ladi?”, “non qayerdan keladi?”, “transportlarni vazifasiga ko'ra ajrat” kabi o'yinlar bir vaqtning o'zida tasniflash, ketma-ketlik va sabab-oqibat bog'lanishlarini rivojlantiradi. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, didaktik o'yinlardan foydalanishda ayrim xatolar uchrab turadi. Birinchidan, o'yinni haddan ortiq nazorat qilish natijasida bola ijodiy tashabbusdan mahrum bo'lib qoladi. Tarbiyachi har bir harakatni buyurib tursa, o'yin mantiqiy mashqdan ko'ra instruksiyani bajarishga aylanadi.

Ikkinchidan, qoidani ortiqcha murakkablashtirish diqqatni asosiy aqliy vazifadan chalg'itadi. Uchinchidan, barcha bolalardan bir xil tezlik va bir xil usulni kutish individual farqlarni inkor etadi. To'rtinchidan, natijani haddan ziyod raqobatga bog'lash ayrim bolalarda tashvish uyg'otishi mumkin. Shuning uchun didaktik o'yinlarda musobaqa elementi bo'lsa ham, hamkorlik, izlanish va ijobiy rag'bat ustuvor bo'lishi kerak. UNICEF materiallarida ham o'yin bolaning agentligi, faolligi, ijtimoiy hamkorligi va ma'noli tajribasi bilan bog'liq ekani ko'rsatiladi. Bu esa o'yinda bolaga tanlash, sinab ko'rish va xatodan o'rganish imkonini berish zarurligini anglatadi.

Mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi didaktik o'yinlarning natijasi darhol chuqur mantiqiy mulohaza ko'rinishida namoyon bo'lmasligi mumkin. U dastlab sodda belgilarni ajratish, o'xshashlikni ko'rish, tartibni saqlash, savolga qisqa asos bilan javob berish, “yana boshqacha bo'lishi mumkin” degan fikrni qabul qilishdan boshlanadi. Ana shu kichik siljishlar kelgusida matematik tasavvurlarni o'zlashtirish, savodga tayyorlanish, matnini tushunish, muammoli vaziyatlarni yechish va mustaqil fikrlashga poydevor bo'ladi. OECD va boshqa xalqaro manbalarda erta yoshdagi o'rganish faqat akademik natija emas, balki kognitiv hamda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarning yaxlit rivoji bilan bog'liqligi ko'rsatib kelinadi. Shu sababli maktabgacha ta'limda didaktik o'yinlarga “darsdan bo'sh qolgan vaqtni to'ldiruvchi” vosita sifatida emas, balki fikrlashni shakllantiruvchi asosiy metodlardan biri sifatida qarash lozim.

Didaktik o'yinlarning afzalligi yana shundaki, ular bolaning emotsional holati bilan aqliy faolligini birlashtiradi. Quvonch, qiziqish va muvaffaqiyat hissi mavjud bo'lgan faoliyatda idrok ham kuchliroq, xotira ham barqarorroq, diqqat ham uzoqroq saqlanadi. O'yin jarayonida bola ma'lum qiyinchilikni “muammo” sifatida emas, “topishmoq” yoki “sarguzasht” sifatida qabul qiladi. Bu esa aqliy zo'riqishni ijobiy motivatsiyaga aylantiradi. Mantiqiy tafakkur uchun aynan shu psixologik fon juda muhim. Chunki tafakkur rivoji faqat intellektual emas, emotsional qulaylikka ham bog'liq.

Tarbiyachi o'yinda bolaga “sen noto'g'ri qilding” demasdan, “yana bir ko'rib chiqamizmi?”, “yana bir belgi topib ko'raylik”, “boshqacha usul bormi?” desa, bola xatoni tahdid emas, izlanishning bir qismi sifatida qabul qiladi. Bu esa mustaqil fikrlash madaniyatining boshlanishidir. Shuningdek, didaktik o'yinlar bolalarda birgina



“to'g'ri javob”ni emas, turli yechim variantlarini ko'rish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Masalan, bir predmetlarni rangiga ko'ra, keyin shakliga ko'ra, keyin vazifasiga ko'ra ajratish topshirig'i bolaga tasniflash mezonini o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu esa fikrlash moslashuvchanligini oshiradi.

UNICEF materiallarida o'yin takroriy sinovlar va yangi imkoniyatlarni kashf etish orqali chuqurroq o'rganishga olib kelishi qayd etiladi. Demak, didaktik o'yin bolani faqat mavjud sxemaga moslashishga emas, balki sxemani o'zgartirishga ham o'rgatadi. Mantiqiy tafakkurning yuqoriroq bosqichlari aynan shu moslashuvchanlik bilan chambarchas bog'liq.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlar tizimli qo'llanilganda ularni mavzular bo'yicha guruhlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Tabiatga oid o'yinlar orqali fasllar almashinuvi, o'simlik va hayvonlar guruhlari, o'sish jarayonlari hamda ekologik bog'lanishlar tushuntiriladi. Nutqiy o'yinlar orqali antonim-sinonimlar, predmet-belgi-miqdor munosabatlari, voqealar ketma-ketligi mustahkamlanadi. Matematik didaktik o'yinlar sanash, taqqoslash, guruhlash, o'lchash hamda fazoviy mo'ljal olish kabi amallarni rivojlantiradi. Ijtimoiy-maishiy yo'nalishdagi o'yinlar esa kasblar, transport, oilaviy vazifalar, xavfsizlik qoidalari kabi mazmunlar asosida mantiqiy bog'lanishlarni shakllantiradi.

Eng muhimi, bu yo'nalishlar alohida emas, bir-birini boyitib boradi. Masalan, “do'kon” syujetli didaktik o'yinida miqdor, tasnif, muloqot, navbat, qoidaga rioya qilish va sabab-oqibat elementlari birgalikda ishlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati beqiyosdir. Ular bolaga bilimni tayyor shaklda bermaydi, balki uni aqliy faoliyatga jalb qiladi, tashqi predmetli harakatlarni ichki fikrlash amallariga aylantiradi, taqqoslash, tahlil, umumlashtirish, tasniflash, ketma-ketlik, sabab-oqibatni anglash kabi mantiqiy operatsiyalarni tabiiy va qiziqarli tarzda shakllantiradi hamda nutq, diqqat, xotira, o'zini boshqarish va ijtimoiy hamkorlikni birgalikda rivojlantiradi.

Piagetning intellekt rivoji haqidagi qarashlari, Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi, Elkoninning o'yin faoliyatiga bergan bahosi, Montessori yondashuvi hamda UNICEF, NAEYC va Harvard markazi materiallari o'yin orqali o'rganishning ilmiy va amaliy asoslarini tasdiqlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, didaktik o'yinlar maktabgacha ta'limda qo'shimcha usul emas, balki mantiqiy tafakkurni shakllantirishning asosiy pedagogik mexanizmlaridan biridir.

Ularni tizimli, maqsadli, yoshga mos va rivojlantiruvchi muhitda qo'llash bola shaxsining intellektual poydevorini mustahkamlaydi, maktab ta'limiga tayyorgarligini kuchaytiradi hamda mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Piaget, J. The Origin of Intelligence in the Child. 2nd ed. London: Routledge & Kegan Paul Limited, 1953. 425 p.
2. Vygotsky, L. S. Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 159 p.
3. Montessori, M. The Discovery of the Child: Formerly Entitled The Montessori Method. Amsterdam: Montessori-Pierson Publishing Company, 2007. 370 p.
4. Elkonin, D. B. “Theories of Play.” Journal of Russian and East European Psychology, 2005, vol. 43, no. 2, pp. 3–89.
5. UNICEF; The LEGO Foundation. Learning through Play: Strengthening Learning through Play in Early Childhood Education Programmes. New York: UNICEF, 2018. 36 p.
6. National Association for the Education of Young Children. Developmentally Appropriate Practice: A Position Statement of the National Association for the Education of Young Children. Washington, DC: NAEYC, 2020. 44 p.
7. Center on the Developing Child at Harvard University. Executive Function Activities for 3- to 5-Year-Olds. Cambridge, MA: Harvard University, 2014. 2 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.